



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 4

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Abdullayev Jamshid Djamilovich

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO'YISH BILAN BOG'LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI.....5

2. Баходирова Нилуфар Зафар кизи

ФЕНОМЕН DATA-DRIVEN ЭКОНОМИКИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi

FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVONNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI.....19

4. Курбанова Лолита Алишеровна

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИКОМАНДИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....25

5. Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI.....35

6. Abdulxoshimov Shoxruxbek Shuxratjon o'g'li

XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHDA HUQUQIY KAFOLATLAR VA PROTSESSUAL NIHOYA VOSITALARI.....44

7. Насритдинова Наргиза Шокиржоновна

АЙРИМ ҲОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА НОМУСТА ТЕГИШ УЧУН ЖИНОЙИ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ЖИНСИЙ ЭРКИНЛИККА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....51

8. Рапиқов Хурсанали Юлдошбоевич

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БЕЗОРИЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАСИ.....58

9. Sadullayev Jahongir Jamshedovich

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUIJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT-HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI.....67

10. Musurmanov Bekzod Raximovich


TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI.....75

11. Yusuvvalieva Rakhima Yusupovna, Amirkulova Parinamoi Behbud

LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....82

12. Бабаджанов Бахтиёр Бекович

ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК, ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ.....89




12.00.03-ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

Abdullayev Jamshid Djamilovich,
 “Adliya a’lochisi”,
 Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
 E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO‘RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO‘YISH BILAN BOG‘LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O‘RNI

For citation: Abdullaev Jamshid Djamilovich. THE PLACE OF MEDICAL SERVICE DIAGNOSTICS-DIAGNOSTIC CONTRACTS IN THE SYSTEM OF FEES-BASED SERVICE CONTRACTS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082242>

ANNOTATSIYA

Maqolada haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimida tibbiy xizmat diagnostika – tashxis qo‘yish bilan bog‘liq shartnomalarning tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, tibbiy xizmat diagnostika – tashxis qo‘yishning turlari va ahamiyatidan tashqari, ushbu shartnomalarning umumiy va xususiy tomonlari o‘rganilgan. Haq evaziga tuziladigan tibbiy xizmat diagnostika – tashxis qo‘yish tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarining bugungi kunda tutgan o‘rni, uning keyingi tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonidagi ahamiyati ilmiy-huquqiy asoslar bilan tahlil qilingan. Dunyoda hamda O‘zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat diagnostika – tashxis bilan bog‘liq tibbiy xizmat shartnomalarining ayni paytdagi joriy holati, rivojlanish bosqichi uchun diagnostika– tashxis tibbiy xizmat shartnomalarining istiqbollari kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy xizmat ko‘rsatish, tashxis, tibbiy diagnostika, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni, haq evaziga tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi, nomoddiy, professional tibbiy bilim, diagnostik xatolar, World Health Organization, tibbiy diagnostika – tashxis, tahlil, xulosa, buyurtmachi (bemor) huquqlari, lisenziya va hujjatlar ochiqligi, malakali tibbiyot xodimlari, uskunalarining sozligi va xavfsizligi, ochiq muloqot va shaffoflik, davolash strategiyasi, tibbiy ekspertiza jarayonlari.

Абдуллаев Джамшид Джамилевич,
 «Отличник юстиции»,
 Доктор философии по юридическим наук (PhD),
 E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

МЕСТО ДИАГНОСТИКИ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ – ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ДОГОВОРЫ В СИСТЕМЕ ПЛАТНЫХ ДОГОВОРОВ НА ОКАЗАНИЕ УСЛУГ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется роль договоров на оказание медицинских услуг, диагностических и диагностических работ в системе договоров на оказание платных услуг. Помимо видов и значения медицинских услуг, рассматриваются общие и специфические аспекты этих договоров. На основе научно-правовых основ анализируется роль договоров на оказание медицинских услуг, диагностических и диагностических работ, заключаемых за плату, и их значение в последующем процессе оказания медицинских услуг. Изучается современное состояние договоров на оказание медицинских услуг, диагностических работ в мире и в Республике Узбекистан, а также перспективы развития договоров на оказание диагностических медицинских услуг.

Ключевые слова: медицинские услуги, диагностика, медицинская диагностика, Закон «О защите здоровья граждан», договор на оказание медицинских услуг за плату, нематериальные активы, профессиональные медицинские знания, диагностические ошибки, Всемирная организация здравоохранения, медицинская диагностика — диагностика, анализ, заключение, права пациента, лицензионные соглашения и открытость документов, квалифицированный медицинский персонал, надежность и безопасность оборудования, открытая коммуникация и прозрачность, стратегия лечения, процессы медицинского обследования.

Abdullaev Jamshid Djamilovich,
 “Excellence in Justice”,
 Doctor of Philosophy (PhD) in Law
 E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

THE PLACE OF MEDICAL SERVICE DIAGNOSTICS-DIAGNOSTIC CONTRACTS IN THE SYSTEM OF FEES-BASED SERVICE CONTRACTS

ANNOTATION

The article studies the role of contracts for the provision of medical services, diagnostics and diagnostics in the system of contracts for the provision of paid services. In addition to the types and significance of medical services, the general and specific aspects of these contracts are studied. The role of contracts for the provision of medical services, diagnostics and diagnostics, concluded for a fee, and their significance in the subsequent process of providing medical services are analyzed on the basis of scientific and legal foundations. The current state of medical service contracts for the provision of medical services, diagnostics and diagnostics in the world and in the Republic of Uzbekistan, as well as the prospects for the development of diagnostic medical service contracts, are studied.

Keywords: medical services, diagnosis, medical diagnostics, Law “On the Protection of Citizens’ Health”, contract for the provision of medical services for a fee, intangible, professional medical knowledge, diagnostic errors, World Health Organization, medical diagnostics - diagnosis, analysis, conclusion, customer (patient) rights, license and document openness, qualified medical personnel, equipment reliability and safety, open communication and transparency, treatment strategy, medical examination processes.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xizmat ko‘rsatish munosabatlari tobora murakkablashib, ularning huquqiy tartibga solinishi alohida e‘tibor talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: “Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega”[1] deb belgilangan. Tibbiy xizmat bir paytning o‘zida insonda ijtimoiy huquqlardan biri sifatida ijtimoiy davlatlarda ta‘minlanishi va kafolatlanishi lozim jihatlardan biridir. Bugungi kun uchun global ahamiyat kasb etadigan sohalardan biri — tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismi diagnostika, ya‘ni tashxis qo‘yishga doir faoliyatdir. Tibbiy diagnostika shartnomalari fuqaro va tibbiyot muassasasi o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniqlashtirib, bemor manfaatlarini huquqiy himoya qiladi. Shu bois, ushbu turdagi shartnomalarning haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimidagi o‘rni alohida o‘rganishni talab etadi.

Dastavval tashxis tushunchasiga ta'rif berishimiz lozim. "Tashxis – bu qaysi kasallik yoki holat odamning alomatlari va belgilarini tushuntirishini aniqlash jarayoni"[2]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mazkur shartnomaviy munosabatlarga yondashish lozim. Boshqa manbada esa bu masala quyidagicha yoritiladi. "Shifokor-bemor munosabatlari aniq yoki nazarda tutilgan holda shartnomaviy xarakterga ega"[3].

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunining tegishli moddalarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vakolatlari doirasiga "Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi sharoitlar yaratish"[4] kiritilgan. Shu munosabat bilan joylarda tibbiy xizmatning tarkibida tibbiy tashxis – diagnostika sohasi keng rivojlanmoqda.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalaridan avval diagnostika – tibbiy tashxis to'g'ri va aniq qo'yilishi, shuningdek, tibbiy xizmatning keyingi ketma-ketligiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, jismoniy shaxs va tibbiyot muassasasi o'rtasidagi huquq va majburiyatlar va boshqa tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining muhim parametrlarini qayd etiladigan haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining umumiy mazmuni namuna tarzida emas, balki har ikki tarafning manfaatlarini to'liq qamrab olishi lozim.

Haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi — bu bir tomon (ijrochi) ikkinchi tomonga (buyurtmachi) ma'lum tibbiy xizmatni ko'rsatish majburiyatini oladigan, shuningdek, buyurtmachi esa ushbu tibbiy xizmat uchun haq to'laydigan fuqarolik-huquqiy bitim hisoblanadi. Ahamiyatli tomoni shuki, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida asosiy natija moddiy buyum emas, balki harakatning o'zi yoki u keltirib chiqaradigan nomoddiy natija hisoblanadi.

Bu haqida D.A.Shepeleva shunday fikr bildiradi: "Mijozning ko'rsatmasi bo'yicha pudratchining foydali to'lanadigan faoliyati sifatida belgilash kerak. Tibbiy diagnostika buyurtmachining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zarur, foydali ta'sir ko'rsatadigan nomoddiy natija olishga qaratilgan"[5].

Tibbiy xizmatlar ham aynan nomoddiy, professional tibbiy bilimga asoslangan faoliyat bo'lgani uchun, ularning huquqiy tabiati xizmat ko'rsatish shartnomalariga yaqin turadi. Diagnostika jarayoni tibbiy xizmatlarning eng mas'uliyatli va nozik yo'nalishidir. To'g'ri bu masala masalaga yuzaki qaraganda uncha katta ahamiyat kasb etmasligi mumkin, ammo ijtimoiy tarmoqlarda ketma-ket berilayotgan xabarlardan kelib chiqib xolisona jarayonga yondashish lozim deb hisoblayman. Chunki masalaga shunchaki munosabat bildirilganda tibbiy xatolar, tashxisning noto'g'ri ekanligi bilan bog'liq o'limlar oddiy xatodek tuyuladi. Aslida bu masala fuqarolik huquqiy munosabat bo'lganligi bois buni tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi yo'li bilan huquqiy tartibga solish mumkin.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (World Health Organization) rasmiy saytida bayon etilgan ma'lumotlar asosanib aytilishimiz mumkinki, tibbiy tashxis bugun kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. "Diagnostik xatolar sog'liqni saqlashning asosiy muammosi va butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimlarida oldini olish mumkin bo'lgan zararning asosiy sababidir"[6]. Shu ma'noda tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida bu xavf-xatarni to'liq bartaraf etish mushkul ekanligi omilidan kelib chiqib, fuqarolik tartibida shartnoma vositasida masalaga muqobil yechim berish kerak.

Bundan tashqari tibbiy tashxisga tibbiy shartnomaning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tibor qaratilishi bilan taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash bilan bir qatorda tibbiy tashkilotning tashxis masalasidagi majburiyatlarini huquqiy formallashtirish imkoniyati vujudga keladi. Bu haqida G.D.Schiff o'z maqolasida "Tashxis qo'ymaslik va kechiktirilgan tashxis noto'g'ri ishlash da'volarida eng ko'p uchraydigan da'volardan biridir"[7] – deb ta'kidlaydi.

E.Z.Sidorova ta'kidlashicha tibbiy diagnostika shartnomalari ham tibbiy xizmatga oid shartnomalar kabi ikki va ko'p tomonlama shartnomalar toifasiga kiradi: "Tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi ikki tomonlama shartnoma sifatida tasniflanishi kerak. Chunki har ikki tomon ham mijoz va tibbiy tashkilotga muayyan majburiyatlar yuklanadi"[8].

Mazkur masalada chuqurroq yondashish uchun tibbiy diagnostika xizmatining huquqiy mohiyatini bilishimiz kerak. Tibbiy diagnostika (tashxis) — bemor(buyurtmachi)ning sog'lig'ini tekshirish, kasallikni aniqlash, taxminiy yoki aniq tashxisni belgilashga qaratilgan faoliyat turi

hisoblanadi. Bugun kunda bu munosabatlar taraflarning o‘zaro og‘zaki kelishuvi yoki namuna shartnoma tarzida amalga oshirilib kelinmoqda. Taajjubga sazovor tomoni shundaki, bugun bir jismoniy shaxs bir nechta tibbiy muassasaga tashrif buyurganda turli xil tashxislarni olishi hamda shu tashxis tufayli xatto noto‘g‘ri davolanishi tufayli turli kasalliklarni orttirib olishi holatlari juda ko‘p uchramoqda. O‘zbekistonda aholining katta qismi bu masala aslida shunday bo‘lishi lozimligi kerak qabilida ish yuritishi mumkin. Ammo tibbiy tashxis to‘g‘ri qo‘yilganda birinchidan buyurtmachining pul mablag‘lari ortiqcha sarflanmasligi, bundan tashqari qo‘shimcha kasallik orttirib olmasligini huquqiy ta‘minlash mumkin.

Tibbiy diagnostika (tashxis) xizmat quyidagi xususiyatlarga ega. Xususan:

Birinchidan, bu jarayon professional bilimga asoslangan jarayon hisoblanadi. Tibbiy diagnostika tibbiy ko‘nikma, laboratoriya-texnik jihozlardan foydalanish va maxsus malaka talab qiladi. Shu sababli, bu turdagi shartnomalar “professional tibbiy xizmatlar” toifasiga kiradi.

Ikkinchidan, tibbiy diagnostika xizmatida natija kafolati berilmaydi. Tibbiy tashxis jarayonida mutaxassis ehtimoliy yoki yakuniy tashxis qo‘yishi mumkin, lekin tibbiyotda 100% aniq natija kafolatlanmaydi. Shu bois mazkur tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi natija emas, jarayon (harakat) majburiyati asosida baholanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ushbu tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasida tibbiy sir va shaxsiy ma‘lumotlar himoyasiga alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Tibbiy diagnostika – tashxis jarayoni bemor sog‘lig‘i haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgani uchun shartnoma maxfiylik majburiyatini qat‘iy nazarda tutishi lozim.

To‘rtinchidan, bu turdagi tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarida bemor xavfsizligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tibbiy standartlar, sanitariya qoidalari va xavfsizlik talablariga rioya qilishi shart.

Beshinchidan, tibbiy diagnostika – tashxis tibbiy xizmatini taklif etuvchi shaxs yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligidan qat‘iy nazar tibbiy texnikaning eng oxirgi modeldagi yohud rusumdagi bilan jihozlangan bo‘lishi shart. Chunki bugungi raqamli texnologiyalar, axborot asrida globallashuv bilan yonma-yon faoliyat yuritmaslik buyurtmachi (bemor) uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Ayrim holatlarda hatto o‘lim bilan ham yakunlanishi uchrab turadi.

Bundan tashqari, tibbiy diagnostika shartnomalarida shartnoma predmeti masalasi ham tadqiqotchilar o‘rtasida nizoli hisoblanadi. S.V.Nagornaya bu xususida “Shartnomaning predmeti tibbiy xizmatlardir. Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan ta‘rif tibbiy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish va himoya qilish maqsadiga mos kelmaydi”[9] deb ta‘rif beradi.

Yuqorida diagnostika-tashxis tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalariga xos bo‘lgan umumiy va xususiy jihatlarni qamrab olish asnosida faktlar bayon qildik. Endi diagnostika – tashxis tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarining boshqa tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan farqli xususiyatlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Diagnostika – tashxis tibbiy xizmatlari davolash va profilaktika xizmatlaridan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi.

Tibbiy diagnostika – tashxis mavjud kasallik(lar)ni aniqlashga qaratilgan “birlamchi bosqich” hisoblanadi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida davolash va boshqa barcha tibbiy amaliyotlar tashxis qo‘yilgandan keyin boshlanadi. Lekin keyingi barcha tibbiy amaliyotlar tashxis to‘g‘ri qo‘yilmasa, deyarli yo‘qqa chiqadi. Buyurtmachi(bemor)ning kasalini davolash o‘rniga unga qo‘shimcha boshqa tashqi aralashuvlar yo‘li bilan moddiy va ma‘naviy ziyon yetkaziladi.

Tibbiy diagnostika – tashxis ko‘rsatish shartnomasining asosiy maqsadi — axboriy natija (tahlil, xulosa, tashxis), boshqa tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarida davolash yoki sog‘aytirish natijasi qilinadi. Boshqacharoq qilib aytganda, ikkinchi guruh tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan shu yo‘sinda umrni uzaytirish maqsad qilinadi.

Mazkur turdagi shartnomalarga nisbatan ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, “Tibbiy xizmatlarni haq evaziga ko‘rsatish shartnomasi, shu jumladan diagnostika va diagnostika xizmatlari, tibbiy tashkilot va bemor o‘rtasidagi yuridik jihatdan majburiy kelishuv bo‘lib, uning predmeti xizmat ko‘rsatuvchining tibbiy xizmatlarni haq evaziga ko‘rsatish majburiyati va bemorning to‘lov shartlarini bajarish majburiyatidir. Ushbu qoida fuqarolik qonunchiligining haq

evaziga xizmatlar ko'rsatish shartnomalari va tibbiy xizmatlarning o'ziga xos huquqiy maqomiga asoslangan"[10].

G'arb davlatlarida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari xususida tadqiqotchilar mutloqa boshqacha rakursda yondashuv taqdim qilishadi. Jumladan, mazkur soha bilan maxsus shug'ullangan tadqiqotchi C.Glendingning "Rag'batlantirishga qaramay, yangi tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi umumiy amaliyotda xizmat ko'rsatishda davom etayotgan o'zgaruvchanlikni bartaraf etishda davom etdi. Darhaqiqat, shartnomaning o'zi kasbni mustaqil pudratchi maqomi ostida professional amaliyotchilar sifatida a'zolarining ishiga aniq davlat aralashuvidan himoya qilishni ta'minladi"[11]. Aytish lozimki, postsovet respublikalari masalaning nizoli tomoni mijoz huquqlarini himoya qilish ham yetarlicha o'rganilmagan bir paytda Yevropa mamlakatlarida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarini amalga oshiruvchi tibbiy tashkilotlar va davlat munosabatlari huquqiy tartibga solish masalasida ilmiy ishlar bajarilmoqda.

Yuqorida qayd qilingani kabi, tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomasining jarayoni ko'pincha tekshiruv uskunalari yoki laboratoriya jarayonlariga tayanadi. Bu o'z-o'zidan tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi taraflarida mas'uliyat va xavflarning boshqa ko'rinishini yuzaga keltiradi. Bunda tibbiy xizmat ko'rsatuvchi shifokor yoki xodim bilan texnik xodimlar o'rtasida kesishuv nuqtasi vujudga keladi. Biroq bu jihatni keyingi maqolalarimizda bayon qilishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomalarining fuqarolik-huquqiy ahamiyati ham juda muhim. Ushbu turdagi shartnomalarning asosiy vazifa sifatida buyurtmachi (bemor) huquqlarini himoya qilishini qayd etishimiz lozim. Tibbiy diagnostika bo'yicha tibbiy xizmat shartnomalari bir qancha vazifalarni bajarishi bizga ma'lum. Jumladan, tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomalari orqali bemor quyidagilarga ega bo'ladi:

- sifatli tibbiy tekshiruvdan o'tish huquqi;
- tibbiy xizmat narxi va shartlari haqida to'liq axborot olishi;
- tibbiy xulosadan nusxa olishi;
- xato tibbiy tashxis qo'yilgan taqdirda huquqiy da'vo qilish va boshqalar.

Tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomalarining fuqarolik-huquqiy xususiyatlaridan yana biri tibbiyot muassasasi mas'uliyatini belgilashda xizmat qiladi. Mazkur turdagi shartnomalar orqali ijrochi tibbiy xodimlarning malakasi, tibbiy tekshiruv jihozlarining texnik holati, tibbiy tahlillar aniqligi va tibbiy hujjatlarning to'g'ri yuritilishi va boshqa jihatlar uchun javobgar bo'ladi.

Tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomalari sohada huquqiy aniq va o'z huquqlarini suda samarali himoya qiladigan munosabatni vujudga keltirishi tabiiy. Shuningdek, tibbiy diagnostika – tashxis ko'rsatish shartnomalari amaliyotga to'liq joriy qilinishi tibbiy diagnostika – tashxis xizmatlari bozorini tartibga solish, narx belgilash, sifat standartlari, xavfsizlik me'yorlari va mas'uliyat choralari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Rasmiy manbalarda tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarini buyurtmachi bemor quyidagi omillarga qarab tanlashi lozim ekanligi ta'kidlanadi. "Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazining ma'lum qilishicha, tibbiyot muassasasi qonuniy va xavfsiz faoliyat yuritayotganini quyidagi belgilar orqali aniqlash mumkin:

Litsenziya va hujjatlar ochiqligi – klinika tibbiy faoliyatga ruxsat beruvchi litsenziyaga ega bo'lishi, u ochiq joyda ilingan yoki so'ralganda bemorga oson taqdim etilishi kerak.

Tozalik va sanitariya – xona va yo'laklar, kutish zali, sanitariya xonalari toza va gigiyena qoidalariga mos bo'lishi shart.

Malakali tibbiyot xodimlari – shifokor va hamshiralar tegishli diplom, malaka to'g'risidagi hujjatlar va sertifikatlariga ega bo'lishi lozim.

Uskunalarining sozligi va xavfsizligi – diagnostika va davolash uskunalari texnik jihatdan soz holda bo'lishi, metrologik tekshiruvlardan o'tganligi va xavfsizlik standartlariga mosligi talab etiladi.

Bemorlar bilan ochiq muloqot va shaffoflik – klinika xodimlari tashxis, davolash rejasi, ehtimoliy asoratlar va xizmatlar narxi haqida bemorga oydin va tushunarli ma'lumot berishi zarur.

Shoshilinch holatlarga tayyorgarlik – klinikada shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlari, zarur dori-darmonlar zaxirasi va bu yo‘nalishda tayyorgarlikka ega xodimlar bo‘lishi muhim”[12].

Diagnostika – tashxis tibbiy xizmatini ko‘rsatish shartnomalarining tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimdagi alohida o‘rni muhim. Haq evaziga tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarining umumiy tizimida diagnostika – tashxis ko‘rsatish shartnomalari o‘zining alohida jihatlari bilan ajralib turadi. Diagnostika – tashxis tibbiy xizmatini ko‘rsatish shartnomalarida xizmatning yakuniy natijasi muhim ma‘lumot sanaladi. Ya‘ni, diagnostika natijasi — bemor sog‘lig‘i bo‘yicha ilmiy asoslangan axborotdir. Bu profilli xizmatlarning aksaridan shu xususiyati bilan farq qiladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatishning tashxisi xatoligi tufayli ijtimoiy xavfi yuqori vaziyat vujudga kelishi mumkin. Misol sifatida alohida qayd etadigan bo‘lsak, ilmiy tadqiqotlarda rinoplastika masalasini o‘rganganimizda agar rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarida ko‘zda tutilgan tibbiy amaliyot – operatsiya jarayonida shifokor tomonidan kasbiy xato ya‘ni – medical malpractice sodir etilishi hamda bu tibbiy xatolik bevosita buyurtmachi (bemor)ga zarar yetkazsa, tibbiy tashkilot yohud ijrochi fuqaro-huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq bu tibbiy xatolikni va zararli ta‘sirni huquqiy baholash yetarlicha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu rivojlanayotgan davlatlarda tibbiy huquqiy madaniyat bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi[13].

Diagnostika jarayonidagi xato noto‘g‘ri davolashga, sog‘liqning yomonlashishiga yoki hayot uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, bu shartnomalar tibbiyot etikasi va huquqining eng muhim bo‘g‘ini sifatida e‘tirof etiladi.

Diagnostika – tashxis tibbiy xizmatini ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlari davolash xizmatlarining boshlang‘ich bosqichidir. Mantiqiy qoidalar bilan yondashsak to‘g‘ri tashxis keyingi jarayonlarni to‘g‘ri boshlanishiga poydevor bo‘lishni belgilaydi. Shu jihatdan diagnostika – tashxis tibbiy xizmati shartnomasi butun tibbiy xizmatlar tizimining poydevori hisoblanadi.

Diagnostika – tashxis tibbiy xizmatini ko‘rsatish tibbiy axborot bazasini shakllantirish uchun ham muhim. Normativ hujjatlarda belgilangan aniqlik bilan yuritilgan diagnostika hujjatlari quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- bemorning keyingi tibbiy tekshiruvlari;
- tibbiy xizmat ko‘rsatish ya‘ni, davolash strategiyasi;
- tibbiy ekspertiza jarayonlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimida tibbiy xizmat diagnostika – tashxis qo‘yish bilan bog‘liq shartnomalarning tutgan o‘rni masalasida xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu shartnomalar tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ular buyurtmachi (bemor) sog‘lig‘ini to‘g‘ri baholash, kasallikni aniqlash va keyingi davolash bosqichini belgilashda uchun zaruriy ahamiyat kasb etadi. Diagnostika-tashxis jarayonining asosiy xususiyatlari – malaka, maxfiylik, xavfsizlik, axborot natijasi va jarayon majburiyatining ustuvorligi hisoblanadi. Ushbu shartnomalarni fuqarolik-huquqiy bitimlar tizimida alohida tur sifatida tarkib topgan.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimiga kiruvchi diagnostika – tashxis qo‘yish bilan bog‘liq shartnomalarning tuzilishi tegishli huquqiy tartibga solish yo‘li bilan diagnostika xizmatlari sifatini oshirish, buyurtmachi (bemor) manfaatlarini himoya qilish va tibbiyot muassasalari faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash, berilgan analiz natijalari uchun huquqiy javobgarlik masalalarini kuchaytirish orqali jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga alohida e‘tibor qaratadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023, 03/23/837/0241-son. (Constitution of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative information, 01.05.2023, No. 03/23/837/0241)
2. Improving Diagnosis in Health Care. National Academy of Medicine. The National Academies Press, 2015. P.35. <https://nap.nationalacademies.org/catalog/21794/improving-diagnosis-in-health-care>

3. F. Bonnie Fremgen. *Medical Law and Ethics* (5th Edition). Pearson Education, 2018 P. 124. <https://www.pearson.com>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan “On the Protection of Citizens’ Health”) <https://lex.uz/ru/docs/-26013?ONDATE2=18.05.2022&action=compare>
5. Шепелева Дарья Александровна. Договор возмездного оказания медицинских услуг // Сервис. 2012. №4. (Shepeleva Daria Aleksandrovna. Contract for the provision of medical services for a fee // Service. 2012. No. 4.) URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dogovor-vozmездnogo-okazaniya-meditsinskih-i-uslug>
6. World Health Organization. *Diagnostic Errors: Technical Series on Safer Primary Care*. Geneva, 2022. P. 12 <https://www.who.int/publications>
7. Schiff G.D et al. Diagnostic Error in Medicine: Analysis of 583 Physician-Reported Errors. *Archives of Internal Medicine*, 2009 P. 3. <https://jamanetwork.com>
8. Сидорова Екатерина Закариевна. Характеристика договора на оказание медицинских услуг // Глаголь правосудия. 2023. №2 (32). (Sidorova Ekaterina Zakarijevna. Characteristics of the contract for the provision of medical services // Verb of justice. 2023. No. 2 (32) URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/harakteristika-dogovora-na-okazanie-meditsinskih-uslug>
9. Светлана Владимировна Нагорная. Договор об оказании медицинских услуг тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.03 кандидат юридических наук. (Svetlana Vladimirovna Nagornaya. Dissertation and abstract on the subject of negotiation and medical procedures, ВАК РФ 12.00.03 candidate of legal science.) <https://www.dissercat.com/content/dogovor-ob-okazanii-meditsinskikh-uslug>
10. https://smekni.com/a/39393/dogovor-vozmездnogo-okazaniya-meditsinskikh-uslug-i-ego-pravovaya-karakteristika/?utm_source=chatgpt.com
11. Glendinning C. GPs and contracts: bringing general practice into primary care. *Soc Policy Adm* 1999;33:115–31. 10.1111/1467-9515.00138
12. <https://kun.uz/news/2025/12/03/qonuniy-va-xavfsiz-klinikani-qanday-tanlash-kerak>
13. J.D.Abdullayev. Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining o‘ziga xosliklari. “Tadqiqotlar” ilmiy-metodik jurnali 80-son/ 2026. (J.D. Abdullaev. Peculiarities of the contract for the provision of medical services for rhinoplasty. Scientific and methodological journal “Tadqiqotlar” 2026) URL: <https://journalss.org/index.php/tad/article/view/19521>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.